

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**

**XAITOV OXUNJON NOMOZ O‘G‘LI**

**HUDUDIY TURIZM SOHASIDA INNOVATSION FAOLLIKNI**  
**OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li**

Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning  
tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... 5

**Хайтов Охунжон Номоз угли**

Совершенствование организационно-экономического механизма повышения  
инновационной активности в сфере регионального туризма..... 27

**Khaitov Okhunjon Nomoz o'g'li**

Improving the organizational and economic mechanism for increasing innovative  
activity in the field of regional tourism..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....57

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XAITOV OXUNJON NOMOZ O‘G‘LI**

**HUDUDiy TURIZM SOHASIDA INNOVATSION FAOLLIKNI  
OSHIRISHNING TASHKILiy-IQTISODiy MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2539 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (buxdu\_rektor@buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Matyaqubov Umidjon Raximovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Abdulloyev Asliddin Junadulloyevich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi muhadislik-iqtisodiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/05.05.2023.I.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "1" may kuni soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (998 65) 221-27-07; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish 436 mumkin (436 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (998 65) 221-27-07; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "19" aprel kuni tarqatildi.

(2024 yil "19" aprel dagi № 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



**O.X. Xamidov**  
beruvchi ilmiy professor

**D.Sh. Yavmutov**  
beruvchi ilmiy dotsent

**B.N. Navruz-Zoda**  
beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonining tobora chuqurlashib borishi sharoitida turizm sohasi rivojining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, boshqa tomondan esa sohaning tarixiy-ijtimoiy nufuzining ortib borishiga ko‘ra jahon iqtisodiyotida turizmning drayver soha sifatidagi maqomi yanada ortib bormoqda. “Jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,0 %ni, yalpi investitsiyalaridagi ulushi 7,0 %ni, yaratilayotgan ish joylarining 10 %i hamda jahonda ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining 10 %i turizm sohasining hissasiga to‘g‘ri kelmoqda”<sup>1</sup>. Hozirgi kunda turizm sohasini ham global, ham hududiy, sifat-miqdor jihatdan samarali rivojlanishini ta‘minlashda turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda turizm sohasini rivojlantirishda hududlar salohiyati va xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish usullari va vositalarini takomillashtirish, soha rivojlanishining tamoyillarini ishlab chiqish, hududiy turistik innovatsion klasterlarni shakllantirish, sohada innovatsion faollikni baholash usullarini takomillashtirish, hududiy turizm innovatsion klasterini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi mavzularga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida turizm sohasini zamonaviy talablar asosida sifat jihatdan rivojlantirish, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish, hududiy turizm innovatsion klasterini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Dunyoda pandemiya paytida o‘rnatilgan cheklovlar birin-ketin kamayayotgani tufayli turizm industriyasi tiklana boshlayapti. Joriy yil birinchi chorakda yurtimizga xorijdan 610 ming nafar yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobaridan ziyod turistlar kelgan. Keyingi oylarda yanada ko‘p turistlar kelishi kutilmoqda”<sup>2</sup>. Bu vazifalarni amalga oshirishda turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning qo‘shimcha imkoniyatlarini asoslash, hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish shakllari va usullarini takomillashtirish, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha

<sup>1</sup> <https://www.unwto.org/ru/news/unwto-underscores-tourisms-importance-for-covid-19-recovery-in-meeting-with-the-king-of-spain>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 26-aprel kuni turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha videosektor yig‘ilishi. <https://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/12026>

sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi 475-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish, turistik xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlashning ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar<sup>3</sup>, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Turizm xizmatlar sohasida innovatsion faollikni oshirishning ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar<sup>4</sup>: A.P.Gorbunov, L.Y.Burnyasheva, L.X.Gazgireyeva, A.V.Durnev, A.A.Ignatyev, A.V.Karpenko, I.P.Monich, V.S.Novikov, YE.V.Pesotskaya va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Vatandosh iqtisodchi olimlarimizdan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, O.X.Xamidov, M.E.Po‘latov, Q.J.Mirzayev, N.S.Ibragimov, J.R.Zaynalov, B.N.Navruz-Zoda, M.M.Muxammedov, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, D.X.Aslanova<sup>5</sup> va va boshqalarning tadqiqotlari va ilmiy asarlarida turizmga oid muhim masalalar yoritib berilgan.

---

<sup>3</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С.Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

<sup>4</sup> Горбунов А.П., Бурняшева Л.А., Газгиреева Л.Х., Руд Н.Ю. Инновационный туристский кластер как модел устойчивого развития регионов / А.П. Горбунов // Известия Кабардино-Балкарского научного сентра РАН. — 2016. — № 4 (72). — С. 62-66; Дурнев А.В. Целесообразность создания туристско-инновационного кластера в регионе / А.В. Дурнев // Новая наука: Современное состояние и пути развития. — 2016. — № 10-1. — С. 45-48; Игнатъев А.А. Инновации туризма на севере России / А.А. Игнатъев // Горизонты экономики. — 2015. — № 4 (23). — С. 30-36; Карпенко А.В. Управление инновационной активностью / А.В.Карпенко // Наука и производство Урала. — 2015. — № 11. — С. 156-159; Монич И.П. Управление инновационной деятельностью в сфере туризма / И.П.Монич // Вестник Забайкальского государственного университета. — 2011. - № 11. — С. 9-14; Новиков В.С. Инновации и эволюция туристской деятельности / В.С. Новиков // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). — 2012. — № 9. — С. 73-78; Песоцкая Е.В. Этологический подход в управлении туристскими услугами / Е.В. Песоцкая // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. — 2016. — № 3 (99). — С. 92-97.

<sup>5</sup> Pardaev M.Q. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari”, Monografiya, — T.: Iqtisodiyot-moliya nashriyoti, 2008. – 260 b.; Tuxliev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 400 b.; Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш: и.ф.д. (DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017 – 26 б.; Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J. va boshqalar. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O‘quv qo‘llanma. T.:Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент конценциясини қўллаш. И.ф.н. дисс. – Бухоро, 2006. – 183 б.; Зайналов Ж.Р., Алиева С.С. Проблемы укрепления и управления финансами туристических предприятий. // Biznes — Эксперт. 2019. – №8. – С. 101-106.; Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish sohasi va

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, respublikamizda mavjud ulkan turistik salohiyatdan unumli foydalanish, turizmni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, ularda turizm industriyasida innovatsion faollikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Ushbu muammolarni iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ahamiyatligi va yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti hamda ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №SIRB-02 "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"innovatsion faoliyat", "turizm sohasida innovatsion faoliyat" kategoriyalarining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish hamda ularning takomillashgan ta'riflarini ishlab chiqish;

turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish;

hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish shakllari va usullarini tasniflash;

hududiy turizm sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish mexanizmlari elementlarini ishlab chiqish;

hududiy turizmning rivojlanish holati va omillarini tahlil qilish;

hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni baholash usullarini takomillashtirish;

turizm sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

hududiy turizm sohasida innovatsion klasterning rivojlanish modellarini tadqiq qilish;

hududiy turizm innovatsion klasterini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi tarmoqlari faoliyati olingan.

---

turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. //Monografiya. "Zarafshon" nashriyoti. 2017. – 300 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari (Samarqand viloyati misolida). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2017. – 95 b.; Navruz-Zoda B.N. The role of information technologies in digital tourism. International scientific review of the problems of economics, finance and management, pp. 22-36. 2020; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук- Киев. 1992 – С. 20.

**Tadqiqotning predmeti** turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, taqqoslash, indeks, guruhlash, grafik, loyihaviy-hisob, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va imitatsion modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

turizm sohasida innovatsion faollikni boshqarish tizimi resurslar, xizmatlar raqobatbardoshligi va innovatsion texnologiyalar sinergetik samaradorligi asosida innovatsion faoliyatni boshqarish usullari funksiyalarining ikki o'lovli tasnifiga ko'ra takomillashtirilgan;

turistik klasterning asosiy qismi va maqsadli guruhlarining o'zaro munosabatlar intensivligi ko'rsatkichining 0 dan 1 gacha o'zgarishi klaster ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni har bir predmeti bo'yicha ekspert baholashni sohada innovatsion faollikni baholashga ko'ra takomillashtirish asoslangan;

yangi turistik mahsulot va xizmatlar yaratish, konsalting xizmatlarini ko'rsatish, intellektual jihatdan qo'shimcha resurslarni jalb qilish, kadrlar va texnologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha turizm klasteri tarkibida maqsadli tuzilmani tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Samarqand viloyatida turizm sohasini barqaror rivojlanish dinamikasi asosida turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni oshirishning 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turizm sohasining innovatsion rivojlanish mexanizmi sifatida "innovatsion faoliyat" va "turizm sohasida innovatsion faoliyat" kategoriya-larining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

turistik klasterlar turlarining tasnifi hayotiy sikl bosqichi, innovatsion jarayonda ishtirok etish darajasi, turizm turlari, turistik manbalar tulari, turistik faoliyat ko'lam, boshqaruv shakli, maqsadli iste'molchilar guruhlari hamda shakllanish usuliga ko'ra tasnifi ishlab chiqilgan;

turizm klasteri faoliyati samaradorligini oshirish jarayoni innovatsion turistik mahsulotni yaratish, klaster ishtirokchilari o'rtasida integratsiyani kengaytirish hamda maqsadli guruhlar manfaatlar sinerjiyasi va muvozanatini ta'minlash tamoyillarini guruhlar bo'yicha tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar turizm sohasida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish, turizm



industriyasini rivojlantirishga oid ilmiy apparatni takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish, mehmonxona xo'jaliklari faoliyatini takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, "Turizm iqtisodiyoti", "Innovatsion iqtisodiyot" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida

turizm sohasida innovatsion faollikni boshqarish tizimi resurslar, xizmatlar raqobatbardoshligi va innovatsion texnologiyalar sinergetik samaradorligi asosida innovatsion faoliyatni boshqarish usullari funksiyalarining ikki o'lchovli tasnifiga ko'ra takomillashtirish taklifi Turizm qo'mitasi tomonidan "Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hududiy dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 02-12-17-1071-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish turizm sohasida resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion faollikni oshirish asosida turistik xizmatlar raqobatbardoshligiga erishish imkonini kengaytirishga xizmat qilgan;

turistik klasterning asosiy qismi va maqsadli guruhlarining o'zaro munosabatlar intensivligi ko'rsatkichining 0 dan 1 gacha o'zgarishi klaster ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni har bir predmeti bo'yicha ekspert baholashni sohada innovatsion faollikni baholashga ko'ra takomillashtirish Turizm qo'mitasi tomonidan "Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hududiy dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 02-12-17-1071-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish turizm klasterlari faoliyati samaradorligini baholash va innovatsion faollikni baholash mezonlarini ishlab chiqishning uslubiy asoslarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

yangi turistik mahsulot va xizmatlar yaratish, konsalting xizmatlarini ko'rsatish, intellektual jihatdan qo'shimcha resurslarni jalb qilish, kadrlar va texnologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha turizm klasteri tarkibida maqsadli tuzilmani tashkil etishning maqsadga muvofiqligi taklifi Turizm qo'mitasi tomonidan "Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hududiy dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 02-12-17-1071-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish turizm sohasida yangi turistik mahsulotlar va xizmatlar yaratish hamda sohada innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish darajasini 1,5 martaga oshirish imkonini muayyan darajada kengaytirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlanish dinamikasi asosida turist sifatida tashrif buyuruvchilar sonini oshirishning 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari Samarqand viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi tomonidan hududda turizm sohasini rivojlantirish dasturlari va “Yo‘l xarita”larini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 02-12-17-1071-son ma’lumotnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish 2028-yilga turist sifatida tashrif buyuruvchilar sonini 14,1 %ga va turistlarga xizmat ko‘rsatishga moslashgan ekoturizm obyektlari sonini 21,4% oshishi imkonini berishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 5 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 138 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasi innovatsion rivojlanishini tavsiflovchi yondashuvlar va qarashlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish asosida “innovatsion faoliyat”, “turizm sohasida innovatsion faoliyat” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, turizm sohasi rivojlanishining tamoyillari ishlab chiqilgan hamda hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish shakllari va usullari tasniflangan. Shuningdek, hududiy turizm sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish mexanizmlari elementlari ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

So‘nggi yillarda respublikamizda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan katta hajmdagi chora-tadbirlarga qaramay, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish bo‘yicha salbiy tendensiyalar mavjud. Umuman

tadbirkorlik faoliyatini, xususan, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning hozirgi holati sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, turistik innovatsion muhitni shakllantirish, innovatsiyalarga talab va taklifni rag'batlantirish, turizm bozorida raqobat muhitini shakllantirish hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi. Shunga qaramay, keyingi yillarda mamlakatimiz tomonidan innovatsion rivojlanishga katta e'tibor qaratilayotgani, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar faol ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Biroq, bu chora-tadbirlarning katta qismi moddiy ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan.

Innovatsion faoliyat – bu innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlar majmuini o'z ichiga oluvchi resurslardan foydalanish intensivligi va ma'lum bir natijaga yo'naltirilganlik darajasiga bog'liq korxonaning safarbar qilingan innovatsion salohiyati va innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligi darajasidir.

Turizm sohasida innovatsion faoliyat – bu turizm va rekreatsiya sohasidagi mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalash, turistik resurs salohiyatini oshirish, turizm industriyasidagi biznes jarayonlarini takomillashtirish, uning institutsional muhitini yaxshilash, sohada mehnat va boshqaruvni tashkil etishga yo'naltirilgan keng ko'lamli innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish bo'yicha faoliyatdir.

Innovatsiyalarni kompleks rivojlantirish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganish, ijobiy natijalarni rejalashtirish va ularni boshqarish turizm sohasidagi murakkab metodologik muammo bo'lib, birinchi navbatda innovatsiyalarni tasniflash bilan bog'liq. Shunga ko'ra, turizmdagi innovatsiyalarni tasniflash bo'yicha yondashuvlarni umumlashtirish natija-sida innovatsion faoliyat obyektiga qarab turizm sohasidagi innovatsiyalarni tasniflashga mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi (1-jadval).

Turizm sohasining innovatsion rivojlanish mexanizmi bozor tamoyillari asosiga qurilgan bo'lib, innovatsion faollikni oshirish, sohada innovatsiyalarga talab va taklif o'rtasidagi muvofiqlikka erishish, turistik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishda intensivlikni ta'minlash hamda sifatni oshirish jarayonlariga yo'naltirilgandir. Shunga ko'ra, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning ilmiylik, barqarorlik, innovatsiyalarni turistlar ehtiyojlariga moslashtirish, ijobiy natijalarga erishish, investitsiya jarayonlariga immanentlik, innovatsion faoliyat va uning natijalari (innovatsiyalar)ning jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos kelishi, uzviylik hamda xavfsizlik tamoyillari ishlab chiqildi.

Turizm sohasida innovatsion jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, odatda, u bir tomondan, turizm bozori va turistlarning qoniqish darajasi orqali, ikkinchi tomondan, turizm tashkilotlari, hududdagi tarmoqlar subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va faoliyati turizm bilan bog'liq o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan qo'shma qarorlar qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi. Innovatsion jarayonning barcha elementlarining bunday o'zaro munosabati turizm sohasining rivojlanishi sifatida belgilangan muhim sinergetik samaraning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Turizm sohasidagi innovatsiyalarning tasnifi<sup>6</sup>

№	Innovatsion faoliyat obyekti	Innovatsiya turi	Tavsifi
1.	Turistik mahsulotlar yoki xizmatlar	Konseptual	Prinsipial jihatdan yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish
		Joriy	Mavjud xizmatlarning yangi kombinatsiyasi
2.	Turistik resurslar	Resurs	Turistik resurslarning yangi turlaridan foydalanish
3.	Turizm industriyasidagi biznes jarayonlari	Marketing	Marketing faoliyatini tashkil etishda yangicha yondashuvlar
		Logistika	Ta'minot, tarqatish va ta'minot zanjirlarida yangi yechimlar
4.	Turizm industriyasidagi institutsional muhit	Me'moriy	Turizm faoliyatini amalga oshirish tuzilmasi, modeli va qoidalarini o'zgartirish
5.	Turizm industriyasida ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish	Boshqaruvchi	Xodimlarning malakasini oshirish, xizmatlar sifatini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish

Boshqaruv funksiyalari bo'yicha turizm sohasida innovatsion faollikni boshqarish usullarini taqsimlash turli xil boshqaruv subyektlari funksiyalarini takrorlanishini bartaraf etishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra, turizm sohasida resurslardan samarali foydalanish, turistik xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali innovatsion faoliyatni boshqarish usullarining funksiyalari bo'yicha ikki o'lchovli tasnifini ishlab chiqish asosida innovatsion faollikni boshqarish tizimini takomillashtirish taklifi asoslandi (2-jadval).

Ishlab chiqilgan tasnifning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: savdo kanallarini diversifikatsiya qilish, maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishish, xarajatlarni kamaytirish, raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash, risklarni minimallashtirish, hudud imijini muvofiqlashtirish va yaxshilashda namoyon bo'ladigan innovatsion faoliyat ishtirokchilarining o'zaro ta'siridan kompleks sinergetik samaraga erishish imkoniyatlari; boshqaruv subyektlarining innovatsion faolligini boshqarish xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan ishtirokchilar faoliyatini tashkil etish va turistik xizmatlar ko'rsatish usullariga ajratish asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirish; turizm industriyasi subyektlari raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi har bir boshqaruv usulini realizatsiya qilish darajasini baholash orqali innovatsion faollikni boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.

Turizm sohasida innovatsion faollikni boshqarish usullari va texnologiyasi samaradorligini oshirish sohada muayyan strategiya ishlab chiqish imkonini beradi. Turizm sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi korxonalarini ushbu yo'nalishda rivojlantirishni zarurat etadi.

<sup>6</sup> Manba: muallif tomonidan mavjud yondashuvlarni umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan

**Turizm sohasida innovatsion faoliyatni boshqarish usullari tasnifi<sup>7</sup>**

<b>Funksiya</b>	<b>Boshqarish vazifasi</b>			
	Resurslardan samarali foydalanishga erishish	Xalqaro bozorda vaziyatni barqarorlashtirish	Turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirish	Turindustriya ishtirokchilari munosabatlarini rivojlantirish
<b>Rejalashtirish</b>	Turizm industriyasini rivojlantirish strategiyasi, rejalari va dasturlarini shakllantirish va innovatsion faollikni oshirish va ularni maqsadli guruhlar bilan muvofiqlashtirish.			
<b>Tashkil etish</b>	Hamkorlikdagi ilmiy ishlanmalarni tashkil etish, turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, turistik resurslardan samarali foydalanish.	Innovatsion jarayonni jadallashtirish, xalqaro bozorda turistik mahsulotlarni targ'ib qilishni tashkil etish, turizm sohasida sifat tizimini joriy etish.	Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish, raqobat muhitini shakllantirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish.	O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarni yaratish, qo'shma loyihalarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, barqaror tashqi aloqalarni o'rnatish.
<b>Motivatsiya</b>	Kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, yagona axborot makonini yaratish, innovatsion tadbirlarni moliyalashtirishni tashkil etish.	Marketing tadqiqotlarini o'tkazish, turistik mahsulot imijini shakllantirish va targ'ib qilish, xalqaro ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish, axborot siyosatini amalga oshirish.	Innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, konsalting xizmatlarini ko'rsatish, innovatsion faol kompaniyalar manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari bilan o'zaro aloqalar, huquqiy xizmatlar ko'rsatish	Innovatsion aloqa texnologiyalarini joriy etish, maqsadli guruhlar o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlarini aniqlash va tashkil etish, tarmoq munosabatlarini rivojlantirish
<b>Nazorat</b>	Turizm sohasini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi, rejalari va dasturlarining bajarilishini monitoring qilish, turizm industriyasining maqsadli guruhlaridan qoniqish monitoringi, turizm sohasidagi innovatsion faollikni baholash.			

Turizm sohasida klaster yondashuvini joriy qilishga alohida ahamiyat beradigan bir qator xususiyatlar mavjud. Uning asosiy xususiyatlaridan biri – turizm sohasi iqtisodiyotning boshqa sohalari va tarmoqlari bilan chambarchas uzviy bog'langandir. Bunda sanoat va qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo turli xil va murakkab turistik talablarni qondirishda ishtirok etadi. Turizm industriyasining

<sup>7</sup> Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar turistik mahsulotni boshqacha qabul qilishadi. Iste'molchi uchun turistik mahsulot keng qamrovli xizmatdir – bitta paketda sotiladigan xizmatlar to'plami va turizm industriyasi korxonasi uchun bu paketga kiritilgan xizmatlarning o'ziga xos turi ekanligini bildiradi. Shunday ekan, sayyohlar turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchilarga qaraganda kengroq qabul qilishadi.

Turistik-innovatsion klaster – innovatsion ishlanmalar asosida yakuniy yuqori raqobatbardosh turizm mahsulotini (xizmatini) yaratish maqsadida xususiy va davlat korxonalari, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududidagi birlashmadir.

Turizm va innovatsiyalar klasteri faoliyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: turizm industriyasi va turdosh sohalarda (davlat-xususiy sheriklik, assotsiatsiyalar shaklida) faoliyat yurituvchi turizm va innovatsion klaster subyektlari (xo'jalik tuzilmalari, hokimiyat va davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy va ta'lim tashkilotlari) o'rtasida hamkorlik mavjudligi; kasaba uyushmalari va boshqalar); turistik-innovatsion klaster subyektlari tomonidan turistik obyektlar joylashgan hududning (turizm-innovatsion klaster obyekti) turizm resurslaridan birgalikda foydalanishi; klaster a'zolari o'rtasida vertikal (turizm industriyasining oziq-ovqat zanjiri doirasida) va gorizontal (turizm mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi tuzilmalar o'rtasida) o'zaro aloqalarning mavjudligi; turizm-innovatsion klaster faoliyatining yagona maqsadining mavjudligi, ya'ni klaster obyektlari va subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsiyalarni joriy etish orqali rekreatsion ehtiyojlarni qondirish.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekistonda hududiy turizm sohasining rivojlanish holati va innovatsion faollikni baholash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikamiz hududlarida turizmning rivojlanish holati va omillari tahlil qilinib, hududiy darajada turizm sohasida innovatsion faollikni baholash usullari tadqiq etilgan. Shuningdek, turizm sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Turizm sohasi barqaror rivojlanayotgan, yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etuvchi tarmoqlardan biri bo'lib, turli darajadagi uzluksiz innovatsiyalarni zarurat etadi. Turizm sohasida innovatsiyalar texnologiyalar bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki bu sohada turistik mahsulotlar ishlab chiqariladigan texnologiyalar va ushbu mahsulotlarga asoslangan xizmatlar o'rtasidagi holat bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlariga e'tibor bersak, kiruvchi tashrif buyuruvchilar soni 2022-yilda 16,5 mln. kishidan iborat bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 101,8 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda turizm strategik ahamiyatga ega soha bo'lganligi sababli 2022-yilda oilaviy mehmon uylari soni ham 3100 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,5 martaga oshgan. Respublikamiz YaIMda turizmning ulushi 2018-2022-yillarda 0,1 bandga oshgan, buning asosiy sababi 2020-yilda butun dunyoda bo'lib o'tgan pandemiya tufayli turizm sohasidagi inqirozli holat hisoblanadi. Respublikamiz


turizm sohasida band bo‘lganlar soni tahlil qilinayotgan davrlar oralig‘ida 37,0 %ga oshgan holda, ichki turizm 5,0 martaga o‘sgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>8</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2018-2022 y.y.da o‘zgarish %
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Tashrif buyuruvchilar soni jami, mln. kishi	16,2	17,7	4,6	6,2	16,5	101,8
2.	Kiruvchi turizm, ming kishi	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	97,9
3.	Joylashtirish vositalari, birlik	916	1051	1156	1085	5010	5,5 marta
4.	Oilaviy mehmon uylari, birlik	-	106	886	897	3100	-
5.	YaiMda turizmning ulushi, %	2,5	2,6	2,3	2,4	2,6	-
6.	Turizm sohasida band bo‘lganlar, ming kishi	201,0	260,1	201,3	215,6	275,3	137,0
7.	Ichki turizm, ming kishi	2255,5	2480,8	1069,2	4162,7	11300,7	5,0 marta

Turizm mamlakatlar iqtisodiyotida multiplikativ samarani yuzaga keltiruvchi, jadal sur‘atlarda o‘sib boruvchi, yuqori daromadli va barqaror soha hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.



#### 1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari, ming kishi<sup>9</sup>


Respublikamizda turizm sohasini barqaror rivojlanishi, jumladan, tarixiy-madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan infratuzilma yaratilishi, xalqaro aloqalarni

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

mustahkamlanishi mamlakatimizni dunyodagi eng ko‘p tashrif bo‘ladigan davlatlardan biriga aylantirdi.

Mamlakatimizda turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 2018-yilda 5346,2 ming kishi, 2022-yilda esa 5232,8 ming kishini tashkil qilgan. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni 2021-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshgan. 2022-yil davomida chet eldan kelganlarning eng katta qismi uchinchi chorakka to‘g‘ri kelgan – 1710,9 ming kishi, bu ularning umumiy sonidan 32,7 % ini tashkil qilgan (1-rasm).



## 2-rasm. Turizm sohasida innovatsion faollikni baholash bosqichlari<sup>10</sup>

Turli xil yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ilmiy adabiyotlarda turizm industriyasidagi innovatsion faoliyatni baholash statistik va tahliliy ma’lumotlarga asoslangan kompleks yondashuv metodologiyasini ishlab chiqishni zarurat etmoqda. Shunga ko‘ra, turizm sohasida innovatsion faoliyatni baholash algoritmini ishlab chiqildi. Bunda baholash predmeti bo‘lib, nafaqat o‘zgaruvchan tashqi muhitga moslashishni, balki unga ta’sir qilish imkoniyatini ham ta’minlaydigan turizm sohasidagi tashkilotlarning baholash obyekti (turistik

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



mahsulot yoki xizmatlarni o'zgartirish bo'yicha faoliyati; turistik resurslar; turizm industriyasidagi institutsional muhit; turizm industriyasidagi biznes jarayonlari; turizm industriyasida xizmat ko'rsatish va boshqaruvni tashkil etish) hisoblanadi (2-rasm).

Turizm sohasida innovatsion faoliyatni baholash bo'yicha ishchi guruhi turizm-innovatsion klasterning boshqaruv kompaniyasi negizida tuzilishi mumkin. Ishchi guruh muayyan hududning turizm industriyasida innovatsion faoliyatning manfaatdor tomonlarini aniqlaydi hamda uni baholash mezonlari va usullarini belgilaydi (4-jadval). Keyinchalik, turizm sohasidagi har bir innovatsion faoliyat obyekti baholanadi, olingan mutlaq qiymatlarning oldingi davr qiymatlariga o'sish sur'ati va ko'rsatkichlarning integral o'sish sur'ati aniqlanadi.

#### 4-jadval

#### Turizm sohasida innovatsion faollik obyektlarini baholash mezonlari va usullari<sup>11</sup>

Innovatsion faollikni baholash obyekti	Innovatsion faollikni baholash mezonlari	Qiymati
Turistik mahsulotlar va xizmatlar	Hisobot davrida joriy etilgan turistik mahsulotlar va xizmatlar soni	3
Turistik resurslar	Turistik resurslar aylanmasida yana joriy qilinganlar soni	3
Turizm sohasida biznes jarayonlari	Turizm sohasida yaratilgan integratsion tuzilmalar soni	2
	Hududiy turizm sohasida o'zaro munosabatlar intensivligi	0,8
Turizm industriyasida institutsional muhit	Turizm sohasida innovatsion faollikni rag'batlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlarni hisobot davridagi kiritilganlari soni	0,5
	Turizm sohasida innovatsion faollikni boshqarishning yaratilgan organlari soni	2
Turizm sohasida xizmat ko'rsatish va boshqaruvni tashkil qilish	Xizmat ko'rsatish va boshqaruvni tashkil qilish jarayonida joriy qilgan innovatsiyalar turistik korxonalar soni	2

Innovatsion faoliyatni baholash bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan turizm sohasida innovatsion faoliyat obyektlarini baholash natijalari 2022-yil 1-yanvar holatidagi statistik ma'lumotlardan foydalanilgan holda tahlil qilingan 4-jadvalda keltirilgan. Mazkur jadvalda keltirilgan usullardan foydalanib, Samarqand viloyatida har bir baholash obyekti uchun innovatsion faoliyatning asosiy mezonlari tahlil qilindi. Anketa so'rovi vositasida hamda Internetdagi marketing tadqiqotlarini tahlil qilishdan foydalangan holda, kalendar yil davomida joriy etilgan turistik mahsulotlar va xizmatlar to'plami tahlil qilindi.

Turistik klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning har bir predmeti bo'yicha ekspert tegishli hududda amalga oshirish darajasini baholashni belgilaydi (0 – amalga oshirilmagan, 1 – qisman amalga oshirilgan, 2 –

<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

muvaffaqiyatli amalga oshirilgan). Keyinchalik, ekspertlarning fikrlari umumlashtiriladi va o‘zaro munosabatlarning har bir subyekt uchun o‘zaro ta’sir samaradorligi ko‘rsatkichi (K):

$$K = \frac{\sum_{i=1}^m k_i}{m}, \quad (1)$$

bu yerda:  $m$  – mutaxassislar soni;  $i$  – ekspertning tartib raqami;  $k$  – o‘zaro ta’sirning ushbu predmet bo‘yicha ekspert tomonidan baholash (0 dan 2 oralig‘ida tebranadi).

Turistik klasterning asosiy qismidagi va turistik klasterning maqsadli guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir intensivligi koeffitsiyenti ( $D$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D = \frac{\sum_{j=1}^{34} D_j}{68}, \quad (2)$$

bu yerda:  $D$  – mazkur predmet bo‘yicha o‘zaro ta’sirning samaradorligi ko‘rsatkichi;  $j$  – o‘zaro ta’sir predmetining tartib raqami.

Turistik klasterdagi o‘zaro ta’sirning intensivlik koeffitsiyenti qiymati 0 dan 1 gacha o‘zgarishi mumkin, bu yerda 0 ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro ta’sirning yo‘qligini anglatadi (klaster ishlab chiqilmagan), 1 esa bunday o‘zaro ta’sirning yuqori intensivligini va shunga mos ravishda klasterning rivojlanishini ham anglatadi.

Respublikamizda turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida turist sifatida tashrif buyuruvchilar sonini oshib borishining regression-korrelyatsion tahlili asosida iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil etish, shakllanish mexanizmlari bo‘yicha qonuniyat-larini o‘rganish va tajribalar o‘tkazish orqali kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot ishida ko‘p omilli ekonometrik modeldagi qatnashadigan omillar sifatida – natijaviy omil etib, Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi) hamda joylashtirish vositalari (dona), turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar va obyektlar soni (dona), turizm sohasida band bo‘lganlar (ming kishi), turizm infratuzilmasi obyektlari (dona), turistik transportlar (dona), umumiy ovqatlanish obyektlari (dona), turistlarga xizmat ko‘rsatishga moslashgan ekoturizm obyektlari (dona), turistlarga xizmat ko‘rsatishga moslashgan agroturizm obyektlari (dona), madaniy meros obyektlari va muzeylar, turizm namoyish obyektlari (dona)lar, jami 9 ta omil tanlab olindi.

Demak, regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar yuqori ahamiyatli, nisbatan ahamiyatli va ahamiyatsiz hisoblanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, modelimizga kiritilgan yuqori ahamiyatli va ahamiyatli omillarni alohida ajratib ko‘rsatdik (5-jadval).

5-jadvalni tahlil qilsak,  $X_4$  va  $X_7$  omillar statistik jihatdan ahamiyatli,  $X_5$ ,  $X_6$  va  $X_9$  omillar esa yuqori ahamiyatli ekanligini ko‘rish mumkin.

## 5-jadval

### Chiziqli regression modelga kiritilgan ahamiyatli omillar<sup>12</sup>

	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlashtirilgan koeffitsiyentlar	t-mezon	P-miqdor
	B	Standart xato	Beta		
(Konstanta)	17303,5	2349,81	0,04	7,36	0,01
X <sub>4</sub>	22,37	10,63	1,31	-2,1	0,07
X <sub>5</sub>	18,78	7,06	1,42	2,66	0,03
X <sub>6</sub>	2,09	4,97	0,23	0,42	0,68
X <sub>7</sub>	14,08	26,3	0,03	0,54	0,61
X <sub>9</sub>	20,74	2,34	0,54	-8,86	4,72

6-jadvalda O‘zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F- Fisher mezonining haqiqiy qiymati  $F_{\text{haqiqiy}}=4,6$ . Shuningdek erkinlik darajalari soni surat bo‘yicha  $k_1=5$  va maxraj bo‘yicha  $k_2=13$  ga teng bo‘lganda, Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi  $p=0,99$ da) uchun  $F_{\text{jadval}}=3,02$ . Demak, hosil qilingan ko‘p omilli regressiya tenglamamiz ahamiyatli hisoblanadi.

## 6-jadval

### Modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari<sup>13</sup>

Ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R	Ko‘p omilli determinatsiya koeffitsiyenti R-kvadrat	Korrektlashtirilgan R-kvadrat	Baholashning standart xatosi	F-haqiqiy	P-qiymat	DW
0,999	0,998	0,995	96,8	4,6	0,17	13

(1) umumiy modelga 6-jadvalda keltirilgan parametrlarni mos holda qo‘yish orqali asosida ko‘p omilli ekonometrik modelning ko‘rinishini quyidagicha yozamiz:

$$Y = 17303,5 + 22,37 \cdot x_4 + 18,78 \cdot x_5 + 2,09 \cdot x_6 + 14,08 \cdot x_7 + 20,74 \cdot x_9, \quad (1)$$

1. Shunday qilib, natijaviy ko‘rsatkich “Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni”ga “turizm infratuzilmasi obyektlari soni”, “turistik transportlar soni”, “umumiy ovqatlanish obyektlari soni”, “turistlarga xizmat ko‘rsatishga moslashgan ekoturizm obyektlari soni”, “madaniy meros obyektlari va muzeylar, turizm namoyish obyektlari soni” kabi omillarning ta’siri ahamiyatlidir. Mazkur omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’sirini quyidagicha izohlash mumkin:

2. Turizm infratuzilmasi obyektlari (dona) (X<sub>4</sub>)ning bir birlikka oshishi birlikka oshishi Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni(Y)ning 22,37 mingga oshishiga olib keladi;

<sup>12</sup> Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

<sup>13</sup> Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

3. Turistik transportlar (dona) ( $X_5$ )ning bir birlikka oshishi Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni(Y)ning 18,78 mingtaga oshishiga olib keladi;

4. Umumiy ovqatlanish obyektlari (dona) ( $X_6$ )ning bir birlikka oshishi Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni(Y)ning 2,09 mingtaga oshishiga olib keladi;

5. Turistlarga xizmat ko'rsatishga moslashgan ekoturizm obyektlari (dona) ( $X_7$ )ning bir birlikka oshishi Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni(Y)ning 14,08 mingtaga oshishiga olib keladi;

6. Turistlarga xizmat ko'rsatishga moslashgan agroturizm obyektlari (dona) ( $X_9$ )ning bir birlikka oshishi Samarqand viloyatiga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni(Y)ning 20,74 mingtaga oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ekonometrik model (1) yordamida istiqbol funksiyalarini tuzishda Samarqand viloyati bo'yicha 2010-2023-yillardagi statistik ma'lumotlardan foydalanib, Samarqand viloyatida Turizm sohasining rivojlanish hajmiga ta'sir etuvchi omillar  $X_4$ ,  $X_5$ ,  $X_6$ ,  $X_7$  va  $X_9$  uchun istiqbol modellari ro'yxatini hosil qildik.

Dissertatsiya ishining **“Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida hududiy turizm sohasida innovatsion klaster rivojlanishining modellari tadqiq qilinib, hududiy turizm innovatsion klasterini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillash-tirish yo'nalishlari aniqlangan hamda turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Keyingi yillarda respublikamizda innovatsion iqtisodiyotga o'tish bo'yicha faol harakatlar va choralar amalga oshirilmoqda. Aksariyat innovatsiyalar davlat tomonidan maqsadli moliyalashtirish asosida strategik ahamiyatga ega tarmoqlarga yo'naltirilmoqda. Shulardan muhim iqtisodiy yo'nalish turizmdir. Biroq turizm tarmog'ining innovatsion strategiyalari tamoyillari bo'yicha mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyalari, rivojlangan innovatsion infratuzilmani yaratish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

